

MINISTERUM FÜR HOCH-UND
FACHSCHULBILDUNG DER REPUBLIK
USBKISTAN
FERGANAER STAATLICHE UNIVERSITÄT
FAKULTÄT FÜR PHILOLOGIE

Lehrstuhl für Deutsch und Französisch
Student der Gruppe №466 des IV.Studienjahres

Dadajonow Oybek

„Chet tili darslarida loyiha ishlari qo'llanishining ahamiyati“

Fachbereich:52200100-Philologie(Deutsch)

Q u a l i f i k a t i o n s a r b e i t

Zur Erlangung des Bachelorgrades

Wissenschaftlicher Betreuer:

M.S.Hodshajew

Gutachter:

Ju. Abdurassokow

FERGANA-2011

Ishning rejasi:

Kirish.

- I.** Darsni loyihalash metodlari haqida.
- II.** Nemis tili darslarida o'quv jarayonini asosiy yo'nalishlari.
- III.** Nemis tili fanida og'zaki nutq shakillarini o'zaro bog'lanishi.
- IV.** Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasi.
- V.** Xulosa.

Kirish.

Umumta'lim maktablarining asosiy vazifasi qilib hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi eng muhim omillardan biridir. Bu masala Respublika Xalq Ta'limi Vazirligining markazida turibdi. Umumta'lim maktablarining o'quvchilarini tarbiyalashda va ularni xorijiy tillarini mukammal bilishi uchun barcha sharoitlar mavjud. Mutaxassislar xorijiy tillarni o'qitish sohasida ulkan ishlarni bajarmoqdalar. Barcha sinflar uchun o'quv dasturlari yaratildi. Bilim, malaka, ko'nikmalarni o'quvchilarda namoyon qilish maqsadida pedagogik texnologiyalar yaratilmoqda.

Xorijiy tillarni o'qitish jarayoni aniq spetsifikani talab qiladi. Til o'rganish materiali ma'lum bir jarayonni o'zida aks ettiruvchi jarayon hisoblanadi. O'quvchilar amaliy tarzda bilim va ko'nikmalarni mustaqil amaliyotda qo'llay boshlashlarini rivojlantirish talab etadi.

Darsda o'qituvchi turli metodik yondashish bilan o'quvchida Bilim-Malaka- Ko'nikmalarni rivojlantirishini talab etiladi. Birinchi navbatda o'qituvchi;

- a) O'qitishning metodik ma'nosini va maqsadini anglash.
- b) O'qitishni ko'rgazmalilik asosida olib borish.
- c) O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabati hamda sinf o'quvchilarining o'zaro munosabati va shu kabi jihatlarga e'tibor berishi lozim.

Bu komponentlarning har biri o'z ichiga turli metodik yondashish zahiralarga egadir. Darsni loyihalashda asosan o'qituvchidan ijodkorlikni turlicha metodik usullardan foydalanish talab etiladi.

Metodika oqituvchining dunyoqarashini boyitadi va turli metodik yo'nalishlarni o'rgatadi. Darsn jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, u dars oxirida o'z savollariga javob olishi kerak.

“Men darsda bu materialni o‘rgata oldimmi yoki 45 minutda nimaga ulgurmadim?”

Nemis tili darsi asosan kommunikativ holda tashkillashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi lozim. O‘quvchi bir vaqtni o‘zida leksik, fonetik, grammatik birliklarni o‘rganib borishi kerak. O‘quv jarayonida o‘qituvchi eng muhim o‘rgatishi kerak bo‘lgan maqsadni anglab olgandan so‘ng, dars loyihasini, har tomonlama qulay tuzishi kerak.

Chet tillarini samarali o‘rgatish uning metodikasini bilishni taqazo etadi. Bu birinchi navbatda, chet tili o‘rgatish metodikasi kursi orqali tamirlanadi.

Ushbu kurs quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi.

- O‘quvchi yoshlarda kelajak kasbiy faoliyatlari uchun nazariy zamin yaratish.
- Ularni chet tili ta’limining qonuniyatlari, usullari, vositalari va tashkiliy shakllari bilan tanishtirish.
- Chet tili ta’limining nazariy masalalarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida amaliyotda samarali va ijodiy qo‘llashni o‘rgatish.

Bir so‘z bilan aytganda o‘qituvchining har bir metodik dars etaplariga yondashishi maksimal o‘ylangan va maqsadga erishish uchun yo‘naltirilgan bo‘lishi shart. Har bir o‘quvchining amaliyotida qo‘llanishi kerak bo‘lgan mashqlar uning Bilim, Malaka, Ko‘nikmalarini rivojlantirib boradi. Takomillashgan Davlat Ta’lim Standarti asosida darsni loyihalash hozirgi zamon talabi demakdir.

Dars qancha turlicha loyihalansa, birbiridan farq qilib, o‘quvchining qiziqтира olsa, bu o‘qituvchining ijodiy yondoshishi mahsuli bo‘lib qoladi. Daholarimiz aytganiday “45 minutlik dars bir kitob” bo‘lishi mumkun.

Nemis tili darslarida o‘quv jarayonini quyidagi yo‘nalishlaridan foydalanish mumkun.

- Asosan nemis tili darsini o'rgatishda dialog va monolog yo'nalishidan foydalanish eng muhim omildir.

Monolog nutq og'zaki nutqni uzoq davomiyligini, fikrlashni va so'z birikmalarini, nutq iboralarini qo'llashda yoki o'qigan matnni qayta bayon qilishda yordam beradigan ko'nikma hosil qiladigan usullardan biri.

Dialog nutq suhbatdoshini fikrini anglashga va javobini qanday topishga yordam beradi va o'quvchi aqliga hujum qilib so'z va nutq iboralaridan to'g'ri foydalanishga undaydi.

Suhbat savol javob tarzda olib borilsa maqsadga muvofiqdir. Bir so'z bilan aytganda monologik va dialogik nutq va og'zaki nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O'qituvchi darsni loyihalashda quyidagi omillarning turlaridan foydalanishi mumkun:

- O'quvchining ichki ruhiyatiga e'tibor va uni rivojlantirish bu dars jarayonini olib borish faoliyatiga yordam beradi. Masalan o'quvchi istagini, xohishini anglab olib, shu yo'nalishda darsni tashkillash mumkun.
- Tashqi motivizatsiya o'quvchi faoliyatida va munosabatida ijtimoiy yo'nalishni keng ochib beradi.

Ichki motivizatsiya kommunikativ yo'nalishga, nutqni rivojlantirishga va situativ qiziqishga undaydi. Demak, motivizatsiya boshqaruvi o'qituvchidan mohirlikni, izlanishni va ijodkorlikni talab etadi.

- Birinchidan qanday yo'nalish usul bilan aniq ishlashni ta'minlasa.
- Ikkinchidan qanday asosiy yo'nalish yoki tur ekanligini anglashga undaydi. O'quvchining individual sifatini belgilashga yordam beradi.
- Uchinchidan agar o'qituvchi o'quvchining individual xususiyatini yaxshi anglasa, qiziqishi, kasbi xohishi va intilishi, hayotga qiziqishi unda dars jarayonini loyihalashda aniq faktlar asosida, ko'rgazmaliylik bilan o'qitishning barcha metodik usullaridan va

kommunikativ holda yondashadi va darsni qiziqarli o'tkazishda, o'quvchining Bilim, Malaka, Ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam beradi. Buning uchun o'quvchiga tanish pedagogik metodlardan, yangi pedtexnologiyalardan, yordamchi adabiyotlardan, turli o'yinlardan foydalanishi zarur ekanligini bildiradi.

Bulardan tashqari chet tilini o'qitish metodikasi kursi ham mavjud bolib, u 3 qismdan iborat.

1. Chet til o'qitish metodikasining nazariy asoslari.
2. Til materiallari hamda nutq faoliyatining turlari, chet tildagi nutqni tinglab tushinish, gapirish, o'qish va fikrni yozma ravishda bayon qilishni o'rganish.
3. Chet tili o'qitish jarayonini tashkil qilish.

Chet tillarini o'rgatish ko'p jihatdan chet tili o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqarishga va nazariyaning amalda qo'llanishiga bog'liq. Nazariya va amaliyot bir – biriga bog'liqligi qabul qilingan terminlarning ilmiyligi va uyg'unligi bilan bog'liq. Chet tilini o'qitish metodikasiga oid terminlarning izohi bu boradagi muammolarni hal qilishda muhim omillardan biridir.

Maktab yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllashtirishni va kengaytirish, ularning estetik tarbiyalash hamda xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilishga tayyorlash lozim. Bularni amalga oshirishda chet tili ham o'z hissasini qo'shadi albatta. Chet tilini o'qitish metodikasi shu soha bo'yicha mutahasislarni tayyorlashda yetakchi o'rinlarda turadi.

Metodika fanning o'z maqsadlari, mazmuni, metodik tushunchalari, ilmiy tekshirish metodlari, vositalari mavjud. Respublikamizda turli xil o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ulardagi o'qitish maqsadlarini ko'zlab shu o'quv yurtlari uchun ulardagi chet tili o'qitish metodikasi yaratilgan.

Chet tillarning o'qitish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi.

1. Bo'lajak mutaxassislarda chet tili o'qitish metodikasidan keng nazariy zamin yaratish.
2. O'quvchi yoshlarda ta'limning tamoyil, metod, vositalarini samarali ijodiy qo'llash, malaka-ko'nikmalarini hosil qilish.

Chet tilini o'qitish metodikasi haqida Davlat ta'lim standartida shunday deyilgan. Nemis tili o'rganish jarayonida quyidagi malaka, ko'nikmalarni egallashlari shart.

- nemis tilidagi matnlarni (10 daqiqada 350 ta so'z) ifodali o'qiy olishi;
- matnlarda ifodalangan turli darajadagi axborotni tushuntira olish.
- 100 – 120 ta so'zlardan iborat bo'lgan o'rtacha murakkablikdagi matnni nemis tilidan ona tiliga, ona tilidan nemis tiliga tarjima qila olish.
- O'qish kitobiga tayangan holda og'zaki nutq ko'nikmalariga ega bo'lish.
- Kommunikativ maqsadlarga yo'naltirilgan og'zaki muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish.
- Dialogik va monologik nutq ko'nikmalariga ega bo'lish.
- Suhbatdoshni nutqini tushuna olish.
- Matnni dialogik gaplarini ko'chira olish.
- O'qilgan yoki eshitilgan matnga tayangan holda reja tuzish yoki tez yoza olish.
- Tabriknoma va maktub yoza olish.

Nemis tilini o'qitishning maqsad va vazifalari.

Ta'lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma topshiriq bo'lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi. Nemis tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda kommunikativ va

lingvomamlakatshunoslik imkoniyatlarini shakllantirishdir. O'quvchilar nemis tilini maktabda, tarbiyaviy, amaliy, ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o'rganadilar.

Tarbiyaviy maqsadi esa xorijiy tildagi matnlarning mazmunini o'rgatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga mo'ljallangan matnlar esa darslik, qo'llanma va boshqa adabiyotlarda o'z ifodasini topadi. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi.

- har tomonlama rivojlangan, yuksak ma'naviyatli, iymon – e'tiqodli, irodali, vatanparvar, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish.
- O'quvchilarga g'oyaviy –siyosiy tarbiya berish, xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunish tuyg'ularini rivojlantirish, ularda aqliy mehnat malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.
- O'z yurti va tili o'rganilayotgan mamlakatning xalqi, uning milliy urf – odati hamda qadryatlariga hurmat bilan do'stona qarashlik dunyoga qiyosiy munosabatda bo'lish sifatlarini shakllantirish.
- O'quvchilarga vatanparvarlik va axloqiy, poklik mehnatsevarlik tuyg'ularini singdirish.

Chet tilini o'qitish metodikasi kursiga o'zining ilmiy ishlari bilan katta hissa qo'shgan ijodkorlarimizdan biri Saidumar Saidaliyevdir. U 1982 yilda “chet tili talaffuziga o'rgatishda talabalarning tinglash qobiliyatini rivojlantirish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Chet tilini o'qitish metodikasi va tilshunoslik masalalariga oid 80 dan ortiq maqola, broshyura va qo'llanmalar e'lon qilgan. Jumladan “Nemischa – ruscha - o'zbekcha” metodik atamalar lug'ati, “chet til o'qitish metodikasi kursidan maruzalar” “Chet til darsi haqida saboqlar” va boshqalar.

Saidaliyev Saidumar 1971 yildan buyon Namangan viloyat til o'rgatish markazi direktori, fakultetlararo chet tillar kafedrası mudiri, xorijiy filologiya fakulteti dekani lavozimlarida ishlab kelmoqda.

I. Darsni loyihalash metodlari haqida.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir. Demak pedagogik jarayonni loyihalashda.

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish.
- 2) Natijalarni ko'ra bilish.
- 3) Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Bu bosqichda o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlik o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'rin tutadi.

Pedagogik jarayonni loyihalash – loyiha, mazmuni, faoliyat uchligi asosida tashkil etuvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Loyihalar predmet va uning yo'nalishiga ko'ra bir biridan farqlanadi.

Loyihalarda o'qituvchi tomonidan ketma – ket amalga oshiriluvchi va tashxisning qo'yilishi bilan yakunlanuvchi tahliliy faoliyatni, oldindan ko'ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlarni namoyon bo'lishi kerak. Loyihaning maqsadi oldindan qog'ozga taqvim-reja, qisqacha yozma bayon sifatida aks ettiriladi.

Pedagogik jarayonni loyihalashda o'qituvchining faoliyati, pedagogik vositalarni qo'llash mazmuni va imkoniyatigina hisobga olinmasligi kerak. U asosan alohida o'quvchi va o'quvchilar guruhi tomonidan tashkil etuvchi faoliyat mazmunini yoritish zarur.

Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi loyihalashda o'quv rejasi, dars turlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik vaziyatni to'laqonli anglash hamda vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishi pedagogik jarayonni samarali hal etishning muhim shartidir. Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin ketin aylanishiga bog'liq.

Agar o'qituvchi vaziyatni yetarli darajada to'g'ri anglamasa, u holda pedagogik vazifalarni hal etish yo'llari ham to'g'ri belgilanmaydi. Endigina kasbiy faoliyatini boshlagan o'qituvchi tajribasizligidan pedagogik vaziyatni to'g'ri anglash, vazifalarni tog'ri belgilash malakasiga ega bo'lmaydi. Shu sababli ular o'zlaricha yo'l tutadilar va pedagogik vazifani darhol hal etmoqchi bo'ladilar, natijada jiddiy xatoga yo'l qo'yiladi. Ammo ayrim hollarda tajribali pedagoglar ham pedagogik vaziyatni tog'ri anglashga etiborsizlik bilan qaraydilar. Natijada pedagogik faoliyatda nomutanosiblik vujudga keladi. Pedagog o'z faoliyatini pedagogik maqsadlarning hal etilishini taminlay olish olmasligini o'ylab o'tirmay, o'quvchilarni faollashtiradi, ko'rgazmali qurollardan foydalanadi, bilimlarni nazorat qiladi. Pedagogik faoliyatni yana bir nomutanosiblik tomoni shundaki, ko'pchilik pedagoglar pedagogik vazifalarni ikkinchi vazifalarga almashtiradilar va faqat ulargagina o'z diqqatlarini qaratadilar.

Pedagogik vazifani anglash mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va tashhis qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Malumotlarning tahlili pedagogik jarayonni mohiyatini jamoa va alohida o'quvchilar harakatlari holatini aniq vaziyatlarda reja o'rganish kabi ilmiy dalillarga ega bo'lishga yordam beradi.

Tashxis (grekcha diagnostikos - tez anglab olish) dastlab tibbiyotda qo'llanilgan tushuncha hisoblanib, kasallik mohiyati va bemor holati

uning har tomonlama izchil o'rganishini anglatuvchi vrach xulosasi sifatida etirof etib kelingan. So'nggi yillarda "tashxis" tushunchasi amaliy pedagogikada ham keng qo'llanilmoqda.

Pedagogik tashxis - pedagogik jarayonni uning umumiy xolati shuningdek, tarkibiy qismlarini har tomonlama yaxlit tekshirish orqali baholashdir.

Pedagogik tashhis odatda pedagogik jarayonni psixologik, subyektiv xususiyatlarini inobatga olish (psixodiagnostik) asosida qo'yiladi. Psixodiagnostik tekshiruv o'quvchi shaxsi hamda uning faolyatini yaxlit yoki ma'lum jihatlarini alohida qamrab olishga asoslanadi. Psixodiagnostik tekshiruv davomiyligiga ko'ra tezkor yoki davomli bo'lishi mumkun.

Tezkor tashxis – o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasining ruhiy holatini, shuningdek ularning og'zaki yoki yozma javoblarini tahlil qilishdan iborat.

Davomli tashxis - o'quv jarayoning umumiy holati, o'quvchilarning xulqidagi kamchiliklar o'quvchilar jamoasi yoki alohida o'quvchining individual xususiyatlari va o'quv faoliyatining mazmunini o'rganishdir.

Malakali pedagogik tashxisning zaruriyati o'qituvchidan o'quvchi shaxsini o'rganish metodlari va maxsus metodikalarni, jamoa, shuningdek, yaxlit pedagogik jarayon xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Tashxis qo'yish ta'lim (yoki tarbiya) maqsad va vazifalarini hal etishning umumiy talabi hisoblanadi. U maqsadlarning aniqligi, bir xilligi, ularni bajarish usullari, o'lchash va baho berish bilan chambarchas bog'liq. Pedagogik tashxis asosini o'quvchi shaxsini har tomonlama bilish, jamoa sifatida sinfnig xususiyatlarini o'rganish, aniq pedagogik

vaziyatlarda ma'lumotlarini tahlil etish kabi holatlari tashkil etadiki, ular ta'lim jarayonini loyihalashning keyingi muhim bosqichida, pedagogik jarayonni oldindan ko'ra bilish imkonini yaratadi. Bu holat pedagogik maqsadning shakllanishiga olib keladi va maqsad asosida puxta o'ylangan pedagogik vazifalarni belgilash imkonini beradi.

Pedagogik oldindan ko'ra bilish obyekt haqidagi ma'lumotlarni oldindan o'rganish jarayoni sanaladi. Bunda obyekt sifatida sinf, o'quvchi, bilim, munosabat va hokazolar tanlanadi. Oldindan ko'ra bilish metodlari turli tuman bo'lib o'qituvchi ularni mukammal o'zlashtira olishi kerak. Oldindan ko'ra bilish metodlari sirasiga modellashtirish, faraz qilish, sintezlash, dalillash, fikriy tajriba va boshqalar kiradi. Ushbu metodlar bir birlari bilan chambarchas bog'liq oldindan ko'ra bilish pedagogning u tomonidan pedagogik vazifalarini fikran bajarishga qo'llaniladigan samarali usullarini faraz qilishda namoyon bo'ladi.

Oldindan ko'ra bilish qobiliyati o'qituvchiga xos bo'lgan muhim kasbiy fazilat hisoblanadi. Garchi erishish yo'llari murakkab bo'lsada, pedagogik faoliyat maqsadi hali amalga oshmagan faoliyatning modellashtirilgan natijasi va pedagogik jarayon miqdori va sifat o'zgarishlarining loyihasi sifatida aks etadi.

Pedagog oldindan ko'ra bilish maqsadga intiluvchanlik bilan bog'liq holda pedagogik vazifalarni aniqlashtirishning va ularni pedagogik vazifalar tizimiga yo'naltirishning so'ngi natijasi hisoblanadi. Bunda pedagogik tashxisda ifoda etiluvchi ma'lumotlar, ya'ni shaxs va jamoaning qo'shimcha imkoniyatlari tayyorgarligi hisobga olinishi kerak. Ilmiy jihatdan asoslangan oldindan ko'ra bilish natija sifatida pedagogik vazifani, pedagog va o'quvchi faoliyatining mazmunini motivatsiya va qisqa muddatda hal etilishi zarur bo'lgan jihatlarni sintez qiladi. Pedagogik vazifa pedagog tomonidan, avvalo, o'zi uchun

shakllantiriladi, so'ngra etibor o'quvchilarning imkoniyatlariga tayangan holda pedagogik vazifaning hal etilishiga qaratiladi.

Malakali pedagogning vaziyatni oldindan ko'ra bilish va maqsadga intilish ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashning asosini tashkil etadi. Pedagogik jarayonni loyihalash bosqichida duch keladigan birinchi muammo - bu pedagogik faoliyat mazmunini loyihalash sanaladi. O'quv dasturi yoki o'quvchi shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda o'quvchilarga nimani taqdim etish hususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

- 1) o'quvchilar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi:
- 2) o'quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari:
- 3) o'qituvchining kasbiy mahorati, shuningdek ta'lim muassasasining moddiy – texnik bazasi.

Bu o'rinda o'quv ma'lumotlarini loyihalash texnologiyasi muhim o'rin tutadi. Unda:

- 1) o'quvchilarga taqdim etiladigan materiallar:
- 2) o'quvchilarga mustaqil bajarish uchun beriladigan vazifalar:
- 3) o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ma'lumot (bilim) turlari o'z aksini topadi.

Texnologik munosabatda o'quv materiali va uning tuzilishi muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni hal etishda "didaktik material" va "o'quv materiali" tushunchalari mohiyatini farqlay olish zarur. G.A. Ball nuqtayi nazariga ko'ra, didaktik material shunday obyektlar tizimidan (ya'ni, didaktik material obyektlar tizimi) iboratki, ularning har biri

ijtimoiy bilim va tajribadan kelib chiqib, moddiy yoki moddiylashgan model tarzida qo'llaniladi.

Tajribalar tahlilining ko'rsatishicha, pedagogik jarayonni loyihalash murakkab jarayondir. Murakkablik pedagogik jarayonni loyihalashda asosan ikki omil: cheklov va ko'rsatmalarni hisobga olish lozimligida ko'rinadi. Ta'lim mazmuni ilmiylik va amaliy ahamiyat talablarini to'ldirishi, o'quv jarayoniga ajratilgan vaqtga muvofiq tashkil etilishi, shuningdek, ta'lim mazmuni va uning o'quvchilar tomonidan qabul qilinish darajasining o'zaro mosligi inobatga olinadi. Shu bois vaziyatning murakkabligi, o'quv fani asoslarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari avvaldan aniqlab olinishi shart.

Odatda ijobiy yakuniy natijalarga erishishga intilgan pedagog o'quv dasturida belgilangan mazmun bo'yicha ish ko'radi. Shu asosda o'zining shaxsiy faoliyat dasturini yaratadi.

O'qituvchining shaxsiy faoliyat dasturida o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlar, o'quv kursining asosiy tayanch tushunchalari, o'quv axborotlarni o'zlashtirish psixologiyasi hisobga olinishi lozim. Demak, pedagog loyihalashni turli darslarda texnologiya qo'llashda o'quvchilarning ehtiyojlari, ta'lim jarayonining ma'lum bosqichda darsga tayyorlash imkoniyati, o'quvchilarning o'z o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini o'stirish asosiy masalalari sifatida tan olinsagina muvaffaqiyat qozonadi.

O'qituvchi faoliyatda kelajakka mo'ljallangan va tezkor loyihalash turli darslarda turlicha moslashtiriladi. Pedagog loyihalashda xoh u dars, xoh u tarbiyaviy tadbir bo'lsin, har bir pedagogik vazifaning yaxlit pedagogik tizimidagi o'rni bilishi lozim.

Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uning izchilligi va uzluksizligini taminlashga erishish

masalalari yetuk mutaffakirlar hamda ilg'or pedagoglarning diqqat etiborlarini jalb etib kelgan. Yosh avlod ta'lim tarbiyasini tashkil etishning ushbu jihatlari o'z davrida Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Yan Amos Komenskiy, Hamza Xakimzoda Niyoziy, Abduqodir Shokiriy va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Axborotlar almashinuvining globallashuvi, shuningdek, ilm – fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida ro'y berayotgan ilmiy yangiliklarning son va sifat jihatidan keskin o'sib borishi o'z – o'zidan o'quvchilarga ular borasida tezkor sur'atda va batafsil ma'lumotlarni berishni kun tartibiga qo'ymoqda. Ushbu talabning ijobiy ravishda qondirilishi, eng avvalo, ilmiy nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishning qulay, maqul shakli bo'lgan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoning maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o'quv manbalari (o'quv dasturi, rejasi, darslik, qo'llanmalar) saviyasi, shuningdek, pedagogning bilim darajasi va pedagogik mahoratiga bevosita bog'liqdir. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda qo'llanmalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o'quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy xususiyatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart – sharoitlarning mavjudligi, o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida ijobiy, samimiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyali qo'llashning yana bir omili – bu muayyan yaxlit ta'limiy jarayonni oldindan loyihalash, o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashxislash hamda ta'lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, xalq ta'limi muassasalari va oiliy o'quv yurtlari oldida o'quv

jarayonning loyihalashning eng qulay, barcha turdagi o'quv muassasalarida va oliy o'quv yurtlari oldida o'quv jarayonida loyihalashning maqbul usullari ko'rib chiqiladi. Bu borada muayyan muvaffaqiyatlar ham qo'lga kiritilgan, ular to'g'risidagi ma'lumotlarga biz pedagogik texnologiya va uning mohiyatini ochib beruvchi, chunonchi, B. P. Bespalko, M. V. Klarin, V. Slastenin, M. O. Ochilov, N. Saidahmedov, K. Zaripov va boshqalar tomonidan yaratilgan adabiyotlar orqali xabardor bo'lishimiz mumkin.

Quyidagi biz yuqorida nomlari keltirilgan pedagog olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda ta'lim jarayonini loyihalash borasidagi shahsiy mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz.

O'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, materiallarni yig'ish va ularning g'oyasi (mohiyati) bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashtirishdan iborat va yana o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida kichik bo'lim (band) lar bo'yicha hal etuvchi hususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lida ijobiy hal etib borilishi lozim bo'lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

Ta'lim maqsadi va vazifalariga tayangan holda, o'quv jarayonning mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir. Mashg'ulotlarning shakli, metod va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi. Muayyan mashg'ulot uchun eng qulay deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayoning qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Shuni ham aytib o'tish joizki, o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirishi uchun yetarli deya belgilangan vaqt hajmi, ya'ni muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va malakalarning o'quvchilar tomonidan qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkunligi aniqlanadi. Demak mashq

(topshiriqlar) tizimining samaradorligiga alohida ahamiyat berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari.

Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan iboratligi ta'kidlab o'tildi. Ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

- 1) o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi;
- 2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lishi.

II. Nemis tili darslarida o'quv jarayonini asosiy yo'nalishlari.

Biz mashq deganda nutq yoki tilga oid ishlarni bir necha maxsus tashkil qilingan o'quv sharoitida bajarilishini tushunamiz. Metodik adabiyotda chet tilini o'qitishda mashqlarning maqsad, vazifasini aniqlashda ularni belgilash va turli yo'nalishlar mavjud.

K.D. Ushinskiy ko'rsatganidek, mashqlarning ma'lum tizimi holida bo'lishligi ularning muvaffaqiyatli qo'llanilishining eng birinchi va asosiy xususiyatidir. Mashqlar tizimining kamchiligi esa ko'p sonli va ko'p vaqt bajariladigan mashqlarning yaxshimasligi natijalar bermasligining asosiy sababidir. Til o'qitish shart – sharoitlarining tizimini yaratish muammosi amaliy va nazariy jihatdan juda muhim hisoblanadi.

Uning muhimligi chet tillar o'qitishda amaliy metodikaning bugunga qadar yetarli, ma'lum maqsadda yo'naltirilgan to'la mashqlar tizimiga ega emasligi bilan belgilanadi. Chet tili o'qitishda qo'llaniladigan mashqlarning ayrim tip va turlari qanchalik samarali bo'lsa, ular til o'rganishning butunlay muvaffaqiyatli bo'lishligini belgilaydi. Til o'rgatishdagi muvaffaqiyat faqat mashqlarning samarali tizimini ta'minlash mumkin. Bu muammo nazariy jihatdan eng murakkab hisoblanadi. Bugungi kunda oxirgacha hal qilinmagan metodikaning vazifalari sifatida mashqlar tizimidagi quyidagi tushunchalar “tizim”, “kichik tizim”, “tip to'plam”, “seriya”, “mashqlar guruhi” kabi tushunchalarni ko'rsatish mumkin. Bu terminlarning ma'nosini quyidagi misolda ko'rsatamiz.

Chet tillarini o'qitishda qo'llaniladigan mashqlar tizimiga to'rta kichik tizimdagi mashqlar kiradi deb ta'kidlashadi, O'. Hoshimov va I. Yoqubovlar.

- 1) gapirishni o'rgatadigan mashqlar .
- 2) tinglab tushinishni o'rgatadigan mashqlar.
- 3) O'qishni o'rgatadigan mashqlar.

4) Yozuvni o'rgatadigan mashqlar.

Har bir kichik tizimdagi mashqlar o'z navbatida bir necha xususiy ko'nikmalarga o'rgatadigan mashqlar yig'indisini o'z ichiga olishi mumkin. Masalan: dialogik nutqni o'rgatadigan mashqlar to'plami. Har bir mashqlar to'plami nutqiy va texnikaviy malakalarni o'rgatadigan uchta mashqlar seriyasidan tashkil topadi. Bizning misolimiz quyidagilardan iborat:

- 1) mashqlar seriyasi talaffuz malakalarini o'rgatadigan mashqlar.
- 2) seriya va grammatik malakalarni o'rgatadigan mashqlar.
- 3) leksik malakalarni o'rgatadigan mashqlardan tashkil topadi.

Ushbu mashqlarning hammasi o'zaro birga va o'zaro bog'liq ravishda bajariladi. Har bir mashqlar seriyasi o'z navbatida qator mashqlar siklini o'z ichiga oladi. Masalan: talaffuzni o'rgatadigan mashqlar, og'zaki nutqning morfologik malakalarini o'rgatadigan mashqlar sikli. Mashqlar sikli ma'lum til hodisalarini o'rgatadigan ancha kichik mashqlar guruhiga bo'linishi mumkin.

Mashqlar tizimini tuzishdagi asosiy metodik tamoyillar.

Har bir mashq kichik tizimni tuzishdagi birinchi metodik tamoyil mashqlarning asosiy tiplari va turlarini o'rgatilayotgan nutq faoliyati turlari lingvopsixologik xarakteristikalarga mos kelishlik tamoyili hisoblanadi. Ushbu tamoyilga muvofiq gapirishni o'rgatadigan mashqlar kichik tizimida gapirishda qo'llaniladigan kommunikativ mashqlar o'qishni o'rgatadigan mashqlar kichik tizimida o'qishda qo'llaniladigan kommunikativ mashqlar asosiy o'rinni egallashi kerak. Mashqlar tuzishda qo'llaniladigan ikkinchi tamoyil o'quv jarayonida turli nutq faoliyati turlarini bir – biriga ijobiy ta'sir etilishlarini hisobga olishlik tamoyilidir.

Gapirish == tinglab tushunish.

Gapirish == o‘qish, o‘qish == yozuv.

Gapirish == yozuv.

Tinglab tushunish == o‘qish.

Mashqlar tizimi mashq tiplariga bo‘linadi. Mashq tiplari esa o‘z ichiga mashq turlarini oladi yoki tiplari mashq turlari yig‘indisidir. Metodistlar mashqlarni oldin 2 tipga ajratganlar:

- 1) til mashqlari.
- 2) nutq mashqlari.

Til mashqlari til materiallarini o‘rgatish o‘zlashtirishni, ularni o‘rgatishdagi qiyinchiliklarni yo‘qotish o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shuning uchun ular leksika, grammatika yoki talaffuz, orfografiyani o‘rgatish mashq turlariga bo‘linadi.

Nutq mashqlari esa til materiallari – fonetika, leksika, grammatika, orfografiya asosida nutq faoliyati (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv) turlarini shakllantirish, o‘rgatish, rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu sababdan bu mashq tipini tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv mashq turlariga bo‘lish mumkin. Keyinchalik esa til mashqlarini tayyorlov mashq tiplari deb atala boshlandi. Hozirga paytda ko‘p metodistlar o‘quv yurtlarida chet tilini o‘qitish maqsadlariga mashqlarning mos kelishik mezoniga ko‘ra, ularni quyidagi asosiy tiplarini ajratishadi.

- 1) Kommunikativ bo‘lgan mashqlar.
- 2) Shartli (o‘quv) kommunikativ mashqlar.
- 3) Haqiqiy (tabiiy) kommunikativ mashqlar.

Kommunikativ bo‘lmagan mashqlar birinchi tip sanalib o‘z tarkibi va maqsadiga ko‘ra turlichadir. Bunday mashqlarga tayyorlov, nutqiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lmagan mashqlarni kiritish mumkin. Bunday mashqlarning ko‘pchiligi nutq vaziyatlari va nutq konteksti bilan aloqada bo‘lmaydi. Bu tip yuqoridagi til yoki tayyorlov mashq tipi maqsadlarini,

ya'ni til materiallari (fonetika, leksika, grammatika, orfografiya) ni o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shartli (o'quv) kommunikativ mashqlar ikkinchi mashqlar tipiga tegishlidir. Mashqlarning bu tipi chet tillar o'qitish nazariyasi va amaliyotiga 60 – yillarda kiritilgan. Bu tipdagi mashqlarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, bunday mashqlar til materiallarini o'quv jarayonida shartli tabiiy muomalaga taqlid qilib mashq qilishni amalga oshirishga yordam beradi. Shartli kommunikativ mashq tipini ba'zilar nutq oldi deb ham nomlaydilar. Shartli kommunikativ mashq tipi nutqqa tayyorlash, mikronutqqa o'rgatish vazifasini bajaradi.

Mashqlarning uchinchi tipi haqiqiy (tabiiy, sof) kommunikativ mashqlardir. Uni ba'zi metodistlar nutq mashqlari tipi deb ham aytadilar. Bu mashqlar tipi makronutq faoliyatini qo'llashga o'rgatadi. Haqiqiy yoki sof kommunikativ mashqlarga nutq faoliyati turlaridagi mashqlar kiradi. Ular o'quvchi, talabalarning bu nutq faoliyatini turlarini ona tilidagidek qo'llashga o'rgatadi.

Bu yerda yangi ma'lumot, xabarni og'zaki uzatish yoki uni yozma shaklda idrok qilish nazarda tutiladi. Haqiqiy kommunikativ mashqlarni bajarishning asosiy dalili muomaladagi haqiqiy ehtiyoj hisoblanadi. Lekin bu mashqlar asosan o'quv sharoitlarida bajarilgani uchun ularni ta'limiy mashqlar deb atash mumkin. Mashqlarning ushbu tipi nutqni tinglab tushunishi, gapirishni va yozuvdagi mahsmlarning ko'p sonli turlarini o'z ichiga oladi. Bu mashqlarning hammasi kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ular tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv mashq turlariga bo'linadi. Yuqorida aytib o'tilgan mashq tiplari metodik tatbig'ini umumiy holda quyidagicha belgilash mumkin: kommunikativ mahsmlar kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan mahsmlar turlarini o'z ichiga oladi, kommunikativ bo'lmagan mashqlarga esa til materialini o'zlashtirishga

yo'naltirilgan mashq turlarini o'z ichiga oladi. Talaffuzni, grammatikani, leksikani o'rgatish turlari bo'lishi mumkun.

Chet tillarini o'qitish metodikasining rivojlanishi tarixida qo'llanilgan metodlarni o'rganish metodika fani uchun juda zarurdir. Biz uni tanqidiy o'rganamiz, bunday o'rganish chet tillarini o'qitish metodikasining ilmiy tatqiqot metodlaridan biridir. O'rganish orqali metodikani kengaytiramiz, rivojlantiramiz, boyitamiz. Chet tillarini o'qitishning rivojlanish bosqichlarida turli metodlar qo'llanilgan.

- I. Tarjima metodlari. Ular 2 xil ko'rinishda bo'lgan. 1) grammatik – tarjima metodi. 2) leksik – tarjima metodi.
- II. Tog'ri metod.
- III. Garold Palmer metodi.
- IV. Uest metodi.

Grammatik tarjima metodining asosida grammatikada, tarjimaga ko'p ahamiyat berilgan. Bu metod jonli tilga o'rgatmaydi, faqat diqqat, etibor shaklga qaratilib, mazmunga ahamiyat berilmaydi.

Leksik – tarjima metod chet tili o'rgatishda tahlil va tarjima qilishni asos qilib olgan. Unda o'quvchilar so'zlarni grammatikani esda qoldirishlari zarur edi. Leksik tarjima metodi orqali chet tili o'qitilganda matnni barchasi ham tushunarli bo'lavermagan.

Tog'ri metod tarjima metodga qarama – qarshi vujudga keladi. Bu metod tog'ri deb atalishiga sabab chet tilidagi so'z, tushuncha tog'ridan to'g'ri ona tili yordamisiz o'rgatilgan.

Bu metod orqali chet tilini o'rganishda asosiy yo'nalish malaka va ko'nikmalarni hosil qilishga gapirishni, o'qishni, tinglab tushunishga o'rgatishga qaratilgan. To'g'ri metod chet tilini aloqa vositasi sifatida o'rgatish fikrini ilgari surgan. Bu fikr o'z vaqtida ijobiy foyda bergan. Chet tili o'qitish ongli bo'lmagan, yozuvga kam ahamiyat berilgan, ona

tili qo'llanilmagan, grammatika esa inkor etilgan. Bular metodning salbiy tomonlaridir.

Audio – vizual metod haqida.

Audio – vizual metod XX asrning 40 – yillaridan rivojlana boshladi. Uning asoschilari yugoslav metodisti Petr Guberina, fransuz metodistlari Pol Revank, Jorj Gugeneymdir. Bu metodni targ'ib qilayotgan, ishlab chiqayotgan markaz Parij yaqinidagi Sen Klu shahrida joylashgan. Audio vizual metod chet tilida o'rganilayotgan hamma til materiallarini rasmini yoki ekranda ko'rsatish va tinglatish orqali chet tilini o'rgatadi. Audio – vizual metod mualliflari quyidagi tamoyillarni asos qilib olganlar:

- 1) Jonli tilning dialogik shakli olingan.
- 2) O'qish – o'rgatishning asosi og'zaki nutq deb qaralgan.
- 3) Yangi materiallarning butun strukturalarini tinglash, ko'rish orqali berilgan.
- 4) Yangi til materiallarining o'zlashtirish taqlid qilish, yodlash, o'xshashligi bo'yicha yangi strukturalarni tuzish orqali bo'lgan.

Audio – vizual metod orqali chet tili o'rgatishda o'quvchilar o'rganayotgan materiallarni bir vaqtning o'zida ham tinglaydi, ham ekranda yoki rasmlarda ko'radi. O'qitish faqatgina chet tilida olib borilib, tinglash, ko'rish, texnik vositalarni keng qo'llashga mo'ljallangan. Metod quyidagi 2 ta bosqichni o'z ichiga oladi:

- 1) retseptiv ish. 2) reproduktiv ish.

Retseptiv ishda o'quvchilar suhbatni chet tilida 2 – 3 marta tinglaydi, ko'radi. Yodida saqlashga harakat qiladi. Reproduktiv ishda esa o'quvchi suhbatni ovozsiz ko'radi, so'zlovchining o'rniga gapiradi, qaytaradi. So'ngida esa o'quvchilar uni kengaytiradilar.

Dialogni o'rgatish 4 ta bosqichga bo'linadi.

- 1) Materialni taqdim qilish. Diafilmni ovozli va ovozsiz ko'rish.

- 2) Tushuntirish. Diafilmni yana ko'rsatib tushuntirish, tushunganlikni tekshirish va tushunmagan joyi bo'lsa yana tushuntirish.
- 3) Qaytarish. O'quvchilarni tinglagan materialni taqlid qilishga o'rgatish.
- 4) Faollashtirish. Diafilmni ovozsiz ko'rib gapirish, so'zlash.
- 5) Bu metod asosida og'zaki nutqni o'rgatish yotadi. Nutq vaziyatlari, gap metodlari esa chuqur o'ylanib tanlab olinadi.

Hozir bu metod bilan chet elliklarni fransuz tiliga o'rgatilmoqda, lekin bu metod keng tarqalib ommalashyapti. Bizning maktablarda bu metod sof holda qo'llanilmaydi.

Eng zamonaviy chet tili o'qitish metodlari.

Ularga quyidagi metodlar kiradi.

- 1) Sokin yo'l orqali til o'rganish metodi.
- 2) Guruh holda chet tilini o'rgatish metodi.
- 3) To'liq javob berish orqali til o'rgatish metodi.
- 4) Til o'rgatishning kommunikativ metodi.

Nutq faoliyatining asosiy til materiali o'z ichiga fonetik, grammatik, leksik materiallarni oladi. Keyingi paytlarda orfografiya ham kiritilyapti, lekin u dasturda yo'q. Til materiali nemis tilini o'rgatishda muhim o'rin tutadi. U hamma nutq faoliyatlari uchun asosiy material hisoblanadi. Usiz biz nutq faoliyatini egallay olmaymiz yoki uni amalga oshira olmaymiz. Til, nutq vositalariga tilning tovush tizimini, ohangini, grammatik tuzilishini, leksikasini kiritishimiz mumkun. O'rta maktab dasturi nutq faoliyatlarini amalga oshirishi uchun fonetik yoki talaffuz, grammatik leksik materiallarni belgilab ko'rsatgan. Bu til materiallari tinglab tushinish, gapirish, o'qish, yozuvning muhim qismidir. Til materiallarini o'rgatishda maktab, akademik litseylar, kasb – hunar kolejlari sharoitini, materiallarning xususiyatini, metodik tomonini hisobga olish zarur. O'quvchi, talaba nutq faoliyatini egallashi, bajarishi uchun nemis tili

leksikasini, grammatikasini, nemis tili, fonetik tizimi tanlab olinib o'rganiladi.

Talaffuz materiali bilan tanishtirish uchta metod orqali amalga oshiriladi. 1-metod. Tovush talaffuzini tinglab, aynan o'zini qaytarish yoki taqlid qilib o'qgatish metodi. Bu quyidagicha o'tkaziladi.

- 1) Yangi tovush so'zda yoki nutq namunasida o'qituvchi tomonidan talaffuz qilinadi.
- 2) O'qituvchi tovushni ajratib olib (harf yoki transkripsiya orqali) doskada ko'rsatadi.
- 3) O'qituvchi tovushni talaffuz qilishni ko'rsatib, o'zi uni bir necha marta talaffuz qiladi.
- 4) Tovush o'quvchi yoki talabalar tomonidan taqlid qilinib birgalikda jo'r bo'lib, yakka talaffuz qilinadi.
- 5) O'quvchilar tovush bor so'zlarni, gaplarni talaffuz qiladilar.
- 6) Tovush yoki tovush birikmalarini nutq faoliyatida qo'llaydilar.

Taqlid qilish ongli bo'lishi unda ong kam ishtirok etishi mumkun. Ongli taqlid qilish (analiz – sintez) orqali bo'ladi.

2- metod tushuntirish metodi. Bu metod asosan ona tilidagi tovushlar bilan qisman o'xshash, umuman yo'q bo'lgan tovushlarni o'rgatishda qo'llaniladi. Bu yerda o'qituvchi o'zi talaffuz qilishidan oldin uni talaffuz qilishning o'rnini, xususiyatini tushuntiradi, ko'rsatadi. So'ng talaffuz qiladi, o'quvchilar talabalar taqlid qilib, yakka talaffuz qiladilar, tushuntirish bilan taqlid bir– birini to'ldiradi, lekin bular 2 xil metoddir.

3 – metod analiz yoki taqlid qilish metodi. Bu metod ayniqsa, ona tilida umuman yo'q tovushlarni talaffuz qilishni o'rgatishda mos keladi. Talaffuz qilish o'rnini tovushni talaffuzi ko'rsatilib, o'quvchilar bilan birga chuqur tahlil qilinadi. O'quvchilar tovushning talaffuz qilish o'rnini, ishtirok etayotgan nutq organlarini ko'radilar, tahlil qilib aniqlaydilar. Ular tovushni hosil qilish, talaffuz qilish o'rnini belgilab xulosa chiqaradilar.

So'ng nutq organlarini bu tovushni talaffuz qilish holatiga keltiradilar. O'qituvchi talaffuzidan keyin o'quvchilar yakka – yakka talaffuz qiladilar. 3-metod metodik adabiyotlarda alohida metod deb ko'rsatilmagan.

Talaffuz farqini o'rgatishda tinglash – ko'rish vositalardan foydalanishni G.V Rogova quyidagicha ko'rsatadi.

1) tovushning farqini ko'rsatuvchi so'zni ifodalaydigan rasmni, predmetni ko'rsatib, talaffuz qilish orqali. O'qituvchi rasmni ko'rsatadi yoki doskaga rasmni chizadi.

2) harakatni ko'rsatish orqali.

3) tovush belgisini ko'rsatish orqali. Talaffuzni o'rgatish urg'uni, ohangni ham o'z ichiga oladi.

O'quv yurtlarda so'zlarni, urg'uni hisobga olib, ko'tariluvchi va pastlovchi ohanglarda jumla, gaplarni talaffuz qilish o'rgatiladi. Buning uchun taqlid qilish metodi keng qo'llaniladi. O'qituvchi urg'uni hisobga olib so'zlarni ko'tariluvchi, pasayuvchi ohanglarda jumla, gaplarni talaffuz qilib yoki texnik vositalardan foydalanib, yakka bo'lib, yakka talaffuz, taqlid qilish orqali o'rgatadi. Tovushlar, fonetik materiallar tanishtirilgandan keyin ularni nutq faoliyatlarida qo'llay olishlari uchun nutq faoliyatlarida o'zlashtirish, mustahkamlash mashqlari bajariladi.

Nemis tili darslarida o'qitish o'rgatishning mazmuni va mehanizmi.

O'qishni o'rgatish mazmuni deganda o'qishni o'rgatganda nimalar o'rgatiladi va ular bilan nima qilishni o'rgatish tushuniladi. O'qish bu:

1) harf – harf brikmalariga, so'zlardagi harflarga mos, to'g'ri keladigan tovush brikmalarini topib to'g'ri, xatosiz o'qish, talaffuz qilish: gapdagi mantiqan (logik) ega va kesimni topish, uni tog'ri urg'u, ritm, ohangda talaffuz qilib o'qish.

2) o'qilgan matnning mazmunini tushuna olishdir. Mana shular o'qish jarayoning ajralmas 3 ta qismidir, komponentidir. Bular o'qishni o'rgatishning mazmunini tashkil qiladi. Birinchi komponent o'qish texnikasi deb atash mumkun. O'qishni o'rgatish mazmunini:

1) o'qish texnikasi.

2) o'qiganing mazmunini tushunish o'rgatishdan iborat deyish mumkun.

Har birini o'rgatishni o'ziga xos xususiyatlari bor, keyinchalik ular ko'rib chiqiladi. Nemis tilida o'qishni o'rgatish texnikasini o'rgatishdan va o'qiganing mazmunini tushunishdan iboratligini bilamiz. O'quvchi, talaba matnni tushunganidagina o'qish ko'nikmasini amalga oshiradi. O'quvchi, talaba o'qish texnikasini egallasa – yu, lekin matn mazmunini tushunmasa, o'qish jarayoni to'la amalga oshmaydi. Oldin o'qish texnikasi o'rgatiladi, so'ng uni asosida o'qilgan matn mazmuni tushunishga o'rgatiladi. O'qiganning mazmunini tushunish o'qish texnikasi asosida uni egallagandan so'ng amalga oshiriladi. Usiz amalga oshirish mumkun emas. O'quvchi, talaba o'qish texnikasini bilmasa, matn mazmunini tushuna olmaydi. Matn mazmunini tushunish uchun ko'pincha ovoz chiqarmay o'qiladi. O'qiladigan matn mazmunini, o'quvchi, talaba uchun qiziq, notanish, yangi ma'lumotga boy, yoyishga to'g'ri keladigan, kuchi yetadigan bo'lishi lozim, aks holda o'quvchi, talaba tushunishi uchun ma'lum vazifani bajarish lozim.

Har bir mashqdagi vazifani, o'quvchi, talaba o'zi mustaqil bajaraoladigan bo'lishi lozim. O'qishda o'quvchi, talaba oldida tanish til (fonetika, leksika, grammatika) materiallari asosida notanish mazmuni o'qib tushunish vazifasida turadi. Matnni o'qib mazmunini tushunishni o'rgatish quyidagi metodik ketma – ketligida olib boriladi.

1) Matnni o'qitishdan oldin notanish harf, harf brikmalari, so'z, iboralar, grammatik materiallari o'rgatiladi, ularga faqat matn

mazmuni notanish bo'ladi. 7 – 8 – 9 sinflarda o'qitiladigan matnlarda ba'zi notanish so'z, iboralarni fahmlab tushinishga harakat qiladi.

- 2) Notanish mamlakat, joy nomlari, ismlar, urf – odatga oid so'zlar tanishtiriladi.
 - 3) Matnni ko'rib chiqib yana har bir o'quvchi yoki talaba o'z uchratgan notanish so'zlarni topsa, o'qituvchi bilan hal qilinadi.
 - 4) Ba'zi notanish materiallarni fahmlab tushunadilar.
 - 5) O'quvchi talabalar ovoz chiqarmay o'qib, notanish mazmunni tushunishga harakat qiladilar.
 - 6) O'qituvchi ba'zi gap, abzaslarni tarjima qildirish orqali mazmunni tushunishga yordam beradi, o'rgatadi.
 - 7) O'quvchi, talaba matnni uyda o'qisa bularni o'zlari uyda mustaqil bajaradi.
 - 8) O'qituvchi o'quvchi, talaba o'qib bo'lganidan so'ng mazmunni tushunganligini tekshiradi. Uning uchun mashqlardan foydalaniladi.
- Mashqlar ikki hil bo'ladi;

Matndan ma'lumot olish ko'nikmalarini rivojlantirish va matnning umumiy mazmunini tushunish maqsadlariga qaratilgan mashqlar tuziladi, o'tkaziladi. Tekshirish mashqlari matnni o'qishdan oldin berilishi, o'qilgandan keyin esa bajrilishi mumkun.

III. Nemis tili fanida og‘zaki nutq shakllarini o‘zaro bog‘lanishi.

Og‘zaki nutq shakllarini o‘zaro bog‘lanishida Fonetika va Talaffuz .

- 1) Tilning tovushlari tizimi (tovushlar, tovush brikmalari, urg‘u, melodiya, intonatsiya, pauza)
- 2) Tilning tovushlar tizimini o‘rganuvchi fan.
- 3) Nutq tovushlarini konkret til normalari asosida nutq a‘zolari yordamida ro‘yobga chiqarish, aytish.
- 4) Konkret til tovushlari tizimining talaffuz mezonlari yig‘indisi.

Tilni amaliy o‘rganish uning talaffuzini o‘rganishni taqozo etadi. Agar gapiruvchi tilning talaffuz mezonlarini buzsa, tinglovchi uni yomon tushunadi yoki umuman tushunmaydi. Har qanday tilni og‘zaki egallash uchun uning talaffuzini bilish lozim. Talaffuzni o‘rgatishda approksimatsiya prinsipiga amal qiladi. O‘quvchilarning fonologik ma’noga ta’sir qiladigan xatolarga yo‘l qo‘ymaydi, ma’noga ta’sir qilmaydigan xatolarga yo‘l qo‘yish mumkun. O‘quvchilar talaffuzini imkon boricha til sohibining talaffuziga yaqinlashtirishga harakat qilinadi.

Fonetik minimum – o‘quvchi birinchi navbatda o‘zlashtirib olishi lozim bo‘lgan fonetik material.

Reproduktiv (axborot berishi) va retseptiv (axborot qabul qilish) fonetik minimum farqlanadi. Reproductiv fonetik minimumda approksimatsiyaga yo‘l qo‘yiladi, retseptivda yo‘l qo‘yilmaydi.

- Reproductiv FM ixtiyoriy diqqat ishtirokida, ongli ravishda taqlid qilish, qoidani o‘zlashtirish asosida o‘zlashtiriladi.

Talaffuzni o‘rgatishda ikki xil yondashuv mavjud.

- 1) Avval artikulatsion harakatni idrok qilishni o‘rgatish, so‘ngra tovushni talaffuz qilishni mashq qilishi kerak. Nafas olish, chiqarish, tovush hosil qilish, artikulyatsion mashqlar, nutq organlarining harakati va holatiga oid mashqlar bajariladi.

2) Tilni tabiiy o'rganish bilan bog'liq bo'lgan yo'nalish. Bola tilini uzoq eshitish va takrorlash orqali o'rganiladi. Chet tilini talaffuzini ham ko'p marotaba eshitish talab etiladi. Kishi to'g'ri eshitgan talaffuzgina to'g'ri ayta olish kerak. O'z navbatida to'g'ri talaffuz qilgan tovushgina to'g'ri eshitiladi. (S.I. Bernshteyn). Ko'p eshitib ko'p takrorlash lozim. O'quvchining nutqini tinglash qobiliyatini rivojlantirish lozim.

Komponentlari:

- fonematik (fonologik) tinglash qobiliyati.
- Fonetik tinglash qobiliyati.
- Intonatsion tinglash qobiliyati.

Har bir fonema fonematik va fonetik xususiyatlariga ega. Birinchisi ma'noga ta'sir qiladi. Ikkinchisi esa ma'noga ta'sir qilmaydi. Intonatsion tinglash qobiliyati jumlaning intonatsion tuzilishini farqlash va uni intonatsion qolip bilan aloqaga kiritishdan iborat.

Fonetik minimum quyidagi prinsiplar asosida tanlanadi.

- muomala ehtiyojiga moslik.
- Stilistik prinsip, guten tag:
- Talaffuz meyorligi (dialektik emas)

Talaffuzni o'rgatish usuli:

- taqlid qilish – imitatsiya usuli:
- tushuntirish (fonetik, analitik) usuli:
- tushuntirish taqlid usuli:

qaysi usuldan foydalanish ko'p jihatdan o'quvchilar yoshiga, fonetik materialga, sinfga, til hodisasiga, o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

Talaffuzni o'rganish qunt bilan mashq bajarishni taqazo qiladi.

Mashqlar:

- tinglash mashqlari:

- tinglab takrorlash mashqlari:

Ushbu mashqlar bajarishda texnik vositalaridan unumli foydalanish lozim. Fonetika va talaffuz tushunchalari bir – biridan farq qiladi.

Fonetika atamasi quyidagi tushunchalarni ifodalaydi.

1) Tilning tovush tuzulishi (tovushlar, tovush brikmalari, urg‘u, pauza, intonatsiya)

2) Tilshunoslik bo‘limi sifatida tilning tovush tizimini o‘rganuvchi fan.

Talaffuz deganda quyidagilar nazarda tutiladi.

1) Nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish.

2) Ma‘lum til tovushlari sistemasining talaffuz normalari yig‘indisi.

Talaffuzga o‘rgatishda til hodisalarining quyidagi fonetik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

1) Tilning tovushlar tizimi.

2) Tilning bo‘g‘inlar tuzilishi.

3) So‘z urg‘usini.

4) Intonatsiyani.

Zamonaviy metodikaning asosiy maqsadi o‘quvchilarni tilning tovushlar haqida bilim berish emas, balki tovush va tovush brikmalarini tog‘ri ohang bilan talaffuz qilishga o‘rgatishni taqozo qiladi, ya‘ni o‘quvchilarda fonetik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish lozim.

Ma‘lumki, kishi talaffuz ko‘nikma va malakalarni mustahkam egallagan taqdirdagina tildan aloqa vositasi sifatida unumli foydalana oladi. Tilning talaffuz normalarini egallash nutq faoliyatining asosini tashkil qiladi va uning turlari uchun muhim ahamyatga ega. Agar gapiruvchi fonetik normalarga amal qilmasa, tinglovchi uni yomon tushunadi yoki mutlaqo tushunmaydi. Agar tinglovchi talaffuz ko‘nikma va malakalari shakllanmagan bo‘lsa, u nutqni tushunmaydi yoki qiyinchilik bilan tushunadi. O‘qish va yozish jarayonlari uchun ham talaffuz ko‘nikma

malakalari muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham chet tili talaffuzga o'rgatishda nutq faoliyatining psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Psixolog, metodist va fonetistlarning fikrlarini tahlil qilish talaffuzga o'rgatishga turli yodda qolarli yondoshishlar mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan: (N.D. Klimov) o'quvchilarni avval artikulyatsion harakatlarini idrok etishga o'rgatib so'ng talaffuz qilishga o'rgatgan. Ushbu yo'nalish tarafdorlarining o'quvchilar nutq organlarining harakatini seza olish ularni boshqara olishlari uchun ovozsiz nutq gimnastikasini bajarishlari lozim. Nutq organlarining harakati ushbu gimnastika natijasida avtomatizm darajasiga ko'tarilishi talab qilinadi. Nutq gimnastikasiga oid mashqlar O.A Nork va N.D Klimov darslarida o'rin olgan. Jumladan nafas olish va nafas chiqarish, tovush hosil qilish, artikulyatsiyaga oid, til, lablar, jag' harakatiga oid mashqlar ushbu qo'llanmalarda berilgan. Bunday mashqlarga og'izni oching va oynaga qarab tilingiz uchini labingiz bo'ylab avval chapdan o'ngga, so'ngra o'ngdan aylana harakat qildirishni o'rgatish lozim. Avval tinglash, so'ngra talaffuz. Talaffuzga o'rgatish jarayonidagi ikkinchi yondashish til o'rgatishning tabiiy qonuniyatiga asoslanadi. Ma'lumki bola ona tilini tabiiy sharoitda tahlil qilish yo'li bilan o'rganadi. U so'zlarni talaffuz qila oladigan bo'lgunga qadar ularni juda ko'p marta tinglaydi. Bolada asta – sekin nutqni tinglash qobiliyati shakllana boradi. Shunga ko'ra o'quvchilarda avval nutqni tinglash qobiliyatini, so'ngra talaffuz ko'nikma va malakalarini Rainer Rainer shakllantirish va rivojlantirish tavsiya qilinadi. Biroq shuni hisobga olish kerakki, tovushlarni talaffuz qilish so'zlash, tinglash mexanizmlarining uzviy bog'liq harakatiga asoslanadi. Masalan: biz so'zlarni talaffuz qilish jarayonida, bu so'zlarni eshitamiz, ya'ni tinglash nazorati bilan talaffuz qilamiz.

Talaffuzdagi xatoni va kamchilikni tinglash nazorati yordamida tog'irlaymiz. So'zlarni talaffuz qilish faqat nutqiy harakat emas, balki bir vaqtning o'zida tinglash harakati hamdir. Ikkinchi tomondan N.I Jinkin aytganidek, tinglab idrok qilish tinglash, nutqiy va ko'rish sezgilarning hamkorligidagi faoliyatini taqozo qiladi. Nutqiy harakatsiz tinglash mumkin emas.

S.I. Bernshteynning fikricha biz to'g'ri talaffuz qila oladigan tovushlarnigina to'g'ri eshitamiz. Yetarli darajada shakllanmagan artikulyatsion ko'nikma noto'g'ri eshitishga olib keladi. Natijada o'quvchi o'z talaffuzidagi xatolarni sezmaydi, talaffuzi va o'qituvchi va direktorning namunali nutqi orasidagi farqni anglamaydi. Talaffuzga o'rgatishda o'quvchini aynan shu farqni idrok qila olishga o'rgatish lozim. Nutq organlarining faoliyati natijasi sifatida signal tovushlar vujudga keladi. Ushbu tovushlar tinglash orqali nazorat qilinadi. To'g'ri nazorat qila olish uchun tinglovchi xotirasida o'rganilayotgan tovushlarning qolipi, namunasi, etaloni, andozasi shakllanishi lozim. Agar bu etalon shakllanmagan bo'lsa, yoki qat'iy bo'lmasa unda o'quvchining talaffuzida xatolar sodir bo'ladi. Shuning uchun ham o'quvchini talaffuzga o'rgatish jarayonida albatta uning nutqini tinglash qobilyatini shakllantirish va rivojlantirish lozim.

Nutqni tinglash qobilyati.

Nutqni tinglash qobilyati uch komponentdan tashkil topadi.

1) Fonematik (fonologik) tinglash qobilyati.

2) Fonetik tinglash qobilyati.

Intonatsion tinglash qobilyati.

3) Fonematik tinglash qobilyati nutq tovushlarining fonologik (fonematik - ma'no ajratuvchi) xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan cho'ziqlik – qisqalik, lablanganlik – lablanmaganlik.

Fonetik tinglash qobilyati esa nutq tovushlarining fonetik (ma'no ajratmaydigan) xususiyatlarini farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: portlovchi p,t,k tovushlarning zarb bilan, so'z boshidagi unlilarning qattiq zarblanishi bilan talaffuz qilinishi.

Intonatsion tinglash qobilyati esa jumlaning intonatsion strukturasi farqlash va uni tilning intonatsion qolipi bilan biriktirish, aloqaga kirishdan iboratdir.

O'rta maktablarda asosan o'quvchilarning fonematik va intonatsion tinglash qobilyatlarini o'stirish zarur, chunki, bu qobilyatlarsiz nutqni tushunish va to'g'ri talaffuz qilish mumkin emas. Ushbu qobilyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi o'quvchilar nutqida fonologik va intonatsion xatolarni keltirib chiqadi. Masalan: o'quvchilar nemis tili ingliz tilidagi cho'ziqlik va qisqalikni farqlamaydilar, natijada so'zning mazmuni noto'g'ri tushuniladi.

O'rta maktablarda talaffuzga o'rgatish apporoksimatsiya (cheklanganlik) prinsipiga asoslanganligi uchun o'quvchilar fonetik tinglash qobilyatini o'stirishga alohida e'tibor berilmaydi. Chunki o'quvchining fonetik xatosi muomala jarayonini to'xtatib qo'ymaydi.

O'quvchining talaffuziga qo'yiladigan talablar.

Endi o'quvchilar talaffuziga qo'yiladigan talablar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Malumki, o'rta maktablarda chet tilini o'rgatishga sarflanadigan vaqt chegaralangan. Bu chegaralanganlik o'quvchilar talaffuziga qo'yiladigan talablarni ham chegaralaydi.

O'rta maktablarda talaffuzni o'rgatish approksimatsiya prinsipi asosida ikki yo'nalishda:

- 1) O'zlashtirilishi lozim bo'lgan chet tili tovushlari va intonatsiya modellari sonini cheklashda: (faqat o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigan materiallar ustida ishlanadi)
- 2) Ba'zi tovushlarni taxminiy artikulatsiya qilishda namoyon bo'ladi (tovushlarni "ideal" artikulatsiya talab qilinmaydi)

Ma'lumki har bir o'rganilayotgan tovush fonologik va fonetik xususiyatga ega. Tovushning fonologik xususiyati so'z ma'nosiga ta'sir etadi, fonetik belgilar esa so'z ma'nosiga ta'sir etmaydi. Talaffuz ustida ishlashda tovushning fonetik xususiyatlari ustida alohida ishlanmaydi. Chunki ular muomala jarayonida hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Agar o'quvchilar so'z morfemalar boshida unli tovushni zarb bilan talaffuz qilmasalar, bunga yo'l qo'yish mumkun.

Maksimal approksimatsiyani chet tilining faqat fonema tarkibiga nisbatan talab qilish mumkun. Hozirgi vaqtda fonetistlarning e'tibori ovozning asosiy ohangida o'zlashtirishlarga qaratilgan. Bunday o'zgarishlar gapning modal, kommunikativ va sintaktik turlarini farq qilish uchun xizmat qiladi. Intonemalar deb ataluvchi bu birliklar lingvistik ahamiyati jihatdan fonemalarga o'xshaydi.

Talaffuz mashqlar:

Talaffuz va malakalari shakllantirish va rivojlantirish qunt bilan muntazam mashq qilishni talab qiladi. Talaffuzga o'rgatuvchi mashqlar asosan ikkiga bo'linadi.

- 1) Tinglash mashqlari.
- 2) Tinglab takrorlash mashqlari.

Tinglash mashqlari asosan nutqni tinglash qobiliyatini o'stirishga qaratiladi. Bu mashqlar ijodiy faollik bilan bajarilishi lozim. Buning uchun esa har bir mashq ma'lum topshiriq bilan berilishi va o'quvchining

ixtiyorsiz diqqati mashq qilinayotgan fonetik hodisaga qaratilishi kerak. Bunday mashqlarga quyidagilar misol bo‘ladi.

- quyidagi tovush (so‘z)larni tinglang:
- tovushni eshitganingizda qo‘lingizni ko‘taring:
- juft tovushlarini tinglang. Ikkala tovush bir xil bo‘lganda qo‘lingizni ko‘taring.
- jumlaning tinglang va tovushni necha marta takrorlanganligini ayting.
- jummalarni tinglang, darak, so‘roq, undov gapni eshitganingizda qo‘lingizni ko‘taring:
- jummalarni tinglang va har bir gapda nechta singtagma (urg‘u) borligini aniqlang.

Ushbu guruhga kiruvchi ko‘rish tayanchi ishtiroki bilan ham bajarilishi mumkin. Bunday misollar orqali mashqlarni tushuntirish mumkin.

- so‘zlarni (so‘z brikmalarini, jummalarni) tinglang, o‘qituvchi talaffuz qilgan so‘z brikmalari, jummalarning ostiga chizing.
- jumladagi (matndagi) urg‘uli so‘zlarning ostiga chizing:
- jumladagi pauzaning o‘rnini belgilang.
- jumladagi ohangni ko‘tarilishi (tushunishini belgilang)

Yuqoridagi mashqlarning ko‘pchiligini magnitafon yordamida bajarilishi mumkin. Magnitafon materialini o‘zgartirmasdan, ovozni ko‘tarmasdan, xohlagancha takrorlash imkonini beradi. Biroq har bir mashq avval o‘qituvchi nutqini idrok qilish bilan boshlanib, so‘ngra fonogramma yordamida bajarilsa ko‘zlangan maqsadga osonroq erishiladi.

Tinglab takrorlash mashqlari asosan o‘qituvchilarning talaffuz ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Bunday mashqlar uchun material sifatida tovushlar, bog‘inlar, so‘z, so‘z brikmalari, jumla xizmat qiladi. Bunday mashqlarga o‘qituvchi (direktor)ga qo‘shilib tovushlarning (bo‘g‘in, so‘z, so‘z brikmasi, jumla) takrorlang, tovush ishtirokida so‘zlarni talaffuz qiling.

O'qituvchi aytgan so'zni jumlag qo'shib takrorlang va boshqalar misol bo'ladi. Ushbu mashqlar ko'rish tayanchi bilan ham bajarilishi mumkun. Masalan.

- jummalarni urg'u (pauza) bilan o'qing.
- jumlalardagi mantiq urg'usini o'rnini almashtirib o'qing.
- jummalarni turli intonatsiya bilan o'qing.

Yuqoridagi mashqlardan tashqari o'rgatishda tez aytish, qofiya, she'rlar, dialog, matndan parchalar bilan ishlash ham keng tarqalgan.

Tinglash talaffuz malakalari nutq mashqlarini bajarish jarayonida nazorat qilinadi va xatolar aniqlanadi. O'quvchi nutqidagi talaffuzga oid xatolarni ikkiga bo'lish lozim.

- 1) fonologik (fonematik) xato.
- 2) fonetik xato.

Fonologik xato nutq mazmuniga ta'sir qiladi, natijada nutq tushunarsiz bo'ladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida bunday xatolarga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Fonetik xatolar esa nutq mazmuniga ta'sir ko'rsatmaydi, lekin chet tilidagi aksentni keltirib chiqaradi. Approksimatsiya prinsipiga ko'ra o'quvchilar nutqidagi fonetik xatolarga yo'l qo'yishi mumkun.

IV. Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasi.

Proyekt soʻzi nima oʻzi? Bu soʻz lotincha boʻlib “proicere” loyihalash, oldindan tuzmoq maʼnosini bildiradi. XIX asrda shimoliy Amerikada pedagog Villiam Heart Kipatrick (1875-1965) va Jon Devey (1859-1952) oʻqitish texnologiyasini, malakasini ishlab chiqishdi va bunga amaliy erishishdi. Asosiy xususiyati nimadan iborat? degan savol tugʻildi. Bu loyihaning farqi nimada? Uni amaliyotda qoʻllash uchun bir kun yoki koʻproq vaqt ketadimi? Davomiyligi butun oʻquv yilini oladimi yoki yoʻqmi?

Loyihaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

- Nazariy va amaliy birikmalar.
- Fanlararo integratsiya va metodlar.
- Barcha maʼnolar bilan oʻrganish va muhim oʻrganish konteksti.
- Ijtimoiy guruhlar bilan oʻqish.
- Mustaqil qoʻllay bilish va ishni mustaqil tashkil qila olish.
- Ishlab chiqarish yoʻnalishi.
- Mustaqil jarayon.

Loyihalash ishlarining har xil boʻlishi mumkun. Aniq kuzatilgan joy, intervyu, kutubxona materiallaridan, internetdan telefon suhbatlaridan foydalanish mumkun. Olmon tilida suhbatlashadigan davlat va xorijiy davlatlari haqida, odamlari haqida maʼlumot toʻplab loyihalash mumkun. Bu materiallar munozara uchun, oʻz fikrini mustaqil bayon qilishi va aholisi haqida suhbatlashishda muhim oʻrin tutadi. Eng muhim loyihalash ishida kerak boʻladigan materiallar gazeta – devoriy gazeta, matn reportajlari, audio va video reportajlarini roʻllarga boʻlib oʻynash muhimdir.

Insonlar uchun quyidagi mavzularda loyihalash mumkun. Mehmonlar uchun shahar yoki mavzu boʻylab sayohat. Restoran, diskoteka, diqqatga

sazovor joylar, dam olish joylari haqida loyihalash mumkun. Loyihalash bosqichlari quyidagilar bo'lishi mumkun.

- Sinf o'qituvchisi tematik va metodik darsni oldindan tayyorlaydi.
- O'quvchilar uchun yozish materiali yoki varaqlarini tayyorlaydi.
- Loyiha turi mavzuga mos holda bo'lishini avvaldan ko'rib, iqror bo'lgandan so'ng loyihaga kiritiladi.
- Guruh ishlari orqali aniq maqsad uchun amaliy mashqlar tanlaydi.
- Ro'llarga bo'lib aniq topshiriq beradi.
- Intervyu uchun savollar to'playdi.
- Mos bo'lgan holda xotima qilishni avvaldan aniqlashi kerak.

Barcha materiallarni to'plab darsni loyihasi tayyor bo'lgach o'qituvchi qay tarzda darsni olib borishi kerakligi haqida o'ylashi zarur. Darsni olib borish bosqichlari quyidagicha bo'lishi mumkun.

O'qituvchi sifatida mavzular yoki aniq mavzu o'quvchilar bilan birgalikda tanlashi mumkun va qiziqishlari bo'yicha mavzuni aniqlab oladi. Aniq guruhlariga bo'lish mumkun. Guruhlar aniq maqsadni maslahatlashadi, topshiriqlarni bo'lishadi va ro'llarga ajratiladi. Axborotlarni guruhida to'plashadi, xulosa qilishadi va materialni tanlab yakunlashadi, shundan so'ng yakun qilishadi. Yakun qismida nimalar bo'lishi mumkun?

Har bir guruh vakili o'z guruhiga xulosasini eshittiradi yoki loyihalangan ishini sxemasini chizib ko'rsatadi. Amaliy ishlarning baholashini va mustaqil ishlab chiqilganligi yoki loyihalanganligi yakuniy ish deb ataladi, ya'ni olmon tilida "dars Endprodukt" deb ataladi.

O'qituvchining loyihalashdagi foydalanadigan materiallari maqsadi, o'zi yoki hamkasblari bilan hamkorlikda ishlashi uchun kerak bo'ladigan jihozlar. Har bir loyiha ishi o'qituvchi tomonidan puxta rejarashtirilgan bo'lishi zarur. Amaliy mashg'ulot o'tish kerak bo'lsa, barcha yozma

xujjatlar tayyorlangan bo'lishi shart. Amaliy mashg'ulotni o'tkazish uchun har bir o'tkaziladigan mashqlar varaqda belgilangan bo'lishi kerak. Asosan rejada quyidagilarni belgilash mumkun.

- 1) Til ma'no maqsadi belgilanadi so'ng dars loyihasiga o'tiladi.
- 2) Agar o'qituvchi o'quvchilar bilan birinchi marta loyiha ishini olib borayotgan bo'lsa, guruh bilan birinchi marta loyiha ishidagi til materiallarini loyihada o'tkazishi va mashq qilish: masalan: protokol yoki intervyyu?

Protokol quyidagicha bo'lishi mumkun.

Datum- uhrzeit- ort

Namen und Funktionen der gruppen mit Datumsangabe

Protokoluhr-

Gesprachsleiter-

Sprachbeobachter-

Zeitbeobachter-

Ergebnisse – das haben wir bereits erreicht.

Plane und Vorhaben – das wollen wir erreichen. Beschlusse und Aufgabenverteilung das müssen wir tun: Offene Fragen / Probleme.

- 3) Agar alohida guruhining munosabatini kuchaytirish kerak bo'lsa, o'zlarini qoida va ish loyihasini ko'rsatishi mumkun. Bunda o'qituvchi guruhga yordam qo'lini cho'zadi: masalan: doskaga misol yozishi mumkun.

- 4) Guruh ishini quyidagicha yakunlanishi mumkun.

Selbstevaluation:

Unsere Gruppe hat gut zusammengearbeitet.

Wir haben uns an den plan gehalten.

Wir haben uns gegenseitig gehalten.

Wir haben alle das protokoll gelesen und korrigiert.

Alle haben bei diesem projekt dazu gelernt.

Unsere Gruppennote.

Loyihaning kirish qismida ishlash varaqlari, kopirovkalar, doska va bo‘r, marker bo‘lishi shart. Ishlash vaqti 15 minut, guruhlarini aniqlashga 10 minut, chegaralangan shart uchun 20 minut, ochiq savollar uchun 5 minut belgilanadi. Ishlash jarayoni munozara guruhlar ishi bo‘lishi mumkun. Darsning maqsadida o‘qituvchi va o‘quvchilar birgalikda mavzuni tashkillashi, aniqlashi va fikrlarini to‘plashi yoki o‘quvchilar aniq shart chegarasini bilishi mumkun. Mayer, Ingrid. Unterrichtsmethoden. 35-37 betlar.

Guruh o‘quvchilari munozara yoki guruhlarda mavzu asosida yoki qismlarga bo‘lib ma’lumot to‘playdilar. Atamalar doskaga yoziladi. Berilgan mavzular yakuniy qismida yig‘ishtirib olinadi va namoish qilinadi. 3 yoki 4 guruh ishi bir mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib turlicha yo‘nalishda talqin qilinadi. Eng muhimi guruhlarning mavzu ustida loyihalashdir. Loyihaga kiritilgan barcha terminlar, ishlash metodlari, foydalanilgan materiallar, bayonnomalar, ro‘llarga bo‘linib ishlash va boshqalar namoyish qilinadi. Guruh vakillari loyihalash ishini taqdim etadilar. Taqdimot paytida har bir guruh “o‘zi tayyorlagan” ko‘rgazmasi ilib qo‘yadi. So‘ng yana bir guruh “expertlar guruhi” tashkil etiladi. Bu guruh vakillari plakat asosida savollarga javob beradilar. Bir ma’lum vaqtdan so‘ng (10 minut) guruhlar plakatlarni tomosha qiladilar. Expertlar axborotida quyidagilar bo‘lishi shart. Har bir guruh azosi alohida o‘z fikrini aytganligi, guruh a‘zolarining soni farqli ekani, bir guruhda ikki expert bo‘lishi mumkunligi va bizga taqdim etish mumkunligini ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari.

Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’lim jarayonini texnologiyalaridan iboratligi takidlab o‘tildi. Ushbu jarayoning samaradorligini taminlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

1) O'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi.

2) Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lishi.

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishlaridan biri.

U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

- loyihani yaratish. (1)

- o'quvchilar faoliyatini tashxislash. (2)

- pedagogik jarayoning samarali kechishini taminlash. (3)

- o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish. (4)

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish.

1) loyihani yaratish

2) o'quvchilar faoliyatini tashxislash

3) pedagogik jarayonini tashkil etish

4) pedagogik jarayonining samarali kechishini ta'minlash

5) o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish.

Pedagogik vazifaning hal etishiga o'qituvchi faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni ta'lim jarayonini texnologik strukturasiga muvofiq yoritish zaruratini taqazo etadi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv kursini o'rganish alohida mavzu va bo'limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv nuqtayi nazardan, Ta'lim jarayonini loyihalash – o'qituvchi kasbiy faoliyatining ko'rinishi bo'lib, o'qituvchining ta'lim jarayoning texnologik tuzulma, uning natijasini taminlovchi metod va vositalar yig'indisi bilan tavsiflanadi. Loyihalash mahsuli ta'lim jarayoning loyihasi sanaladi.

Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratiladi, chunonchi: Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari

Ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy – psixologik muhit)ning loyihada maqsadga muvofiq yaratilishi asosida ta'minlanadi. Ta'limning texnologik vositalari o'quvchilarning individual xususiyatlariga bog'liq bo'lgan holda tanlanadi. Loyihalash strategiyalari o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi. Loyihalash sifati teskari aloqa (o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni shuningdek, barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonini loyihalash ikki darajada:

- a) o'qituvchining faoliyati darajasida (ta'lim jarayoning alohida qismlarini loyihalash)
- b) ta'lim menejeri faoliyati darajasida (ta'lim jarayonini yaxlit loyihalash) amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv quyidagi tarkibiy qismlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvning tarkibiy qismlari.

- 1) Texnologik jarayon faoliyat modellari ko'rinishida ifodalangan ta'lim mazmunining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish jarayoni.
- 2) Texnologik jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalar ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlovchi manaviy va moddiy vositalar.
- 3) Texnologik jarayonini boshqarish o'qituvchi faoliyatini o'quvchi faoliyatining aniq modellariga muvofiq amalga oshirish.
- 4) Axborot ta'minoti ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirishga oid meyoriy hujjatlar to'plami va ta'lim jarayonining loyihasi.

5) Texnologik ijtimoiy – iqtisodiy ta'minot barcha ta'lim muassasalari faoliyati sifatini nazorat qilish, ta'lim xizmatini asoslash hamda qulay manaviy psixologik iqlimni yaratish.

Ushbu tarkibiy qismlarning dastlabki to'rttasi o'qituvchi faoliyati va uning boshqaruvi, beshinchisi esa bevosita o'qituvchi va maktab ma'muriyati boshqaruvini ifodalaydi. Ta'lim jarayonini loyihalash doirasida o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish muhim o'rin tutadi. Shu bois nazorat jarayonini loyihalash ham o'qituvchidan alohida malakali yondashuvni talab etadi.

Nazorat jarayonini loyihalash.

O'qituvchi faoliyatining ko'rinishlaridan biri hamda ta'lim jarayoni texnologik tuzilmasining tarkibiy qismi bo'lib, samarali (kutilgan) natijani ta'minlovchi metod va vositalari yig'indisini o'z ichiga oladi. Loyihalash pedagogik faoliyatning murakkab ko'rinishi bo'lib, uni amalga oshirishda ta'lim jarayoning muhim qonuniyatlari inobatga olinishi zarur. Ta'lim sohasining jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi. O'quvchilar faoliyati tavsifining ta'lim natijalariga bog'liqligi: O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari bilan o'zaro muvofiq kelishi: ta'lim maqsadi, mazmuni shakl, metod va vositalarning ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilishi va hokazolarni inobatga olish zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida ta'lim jarayonini loyihalashda bir qator tamoyillarga tayaniladi. Ayni o'rinda, dastlab, "tamoyil" tushunchasining mohiyatini anglab olish zarur.

Tamoyil (lotincha principium – boshlang'ich, asos)- muayyan nazariya, fan, dunyoqarash, ijtimoiy – siyosiy tuzilma va hokazolarning asosiy boshlang'ich holati ma'nosini anglatadi. Bu tushuncha, shuningdek ma'lum faoliyatning yetakchi g'oyalari, asosiy qoidalari sifatida ham keng qo'llaniladi. Ta'lim jarayonini loyihalashda tamoyillar asosiy yondashuv, faoliyat tuzilmalarini aniqlovchi meyor hamda muvofiqlashtiruvchi talablar

vazifasini bajaradi. Loyihalash tamoyillari nafaqat meyoriy, balki tavsifiy vazifani ham bajarib, faoliyat mohiyatini ochib beruvchi umumlashma talablar sifatida tavsiflanadi. Ta'lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi. Tizimlilik tizimlashtiriluvchi elementlarni ajratish va ular orasidagi aloqalarni ifodalash orqali ta'lim jarayonini yaxlit holda loyihalashga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga va pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari.
- 2) Markazlashtirish tamoyili.
- 3) Natijaviylik tamoyili.
- 4) O'quvchi shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili.
- 5) Refleksivlik tamoyili.
- 6) Komillik tamoyili.
- 7) Ta'lim jarayoniga tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili.

Markazlashtirish tamoyili texnologik jarayonda o'quvchilar faoliyati modelni loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayonini tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va o'quvchi faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini o'quvchilarning ijtimoiy tarjiba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiy ta'lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi.

Natijaviylik tamoyili – pedagogik shart sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik – ijtimoiy tarjiba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish sabalarini tanlash, o'quv faoliyatini muvofiqligi, ta'lim tarbiya vositalari, texnologik jarayonda

subyektiv qisqa vaqt va kuch sarflash vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

O'quvchi shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yganidan boshlab uning faoliyat ko'lami (o'z - o'ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko'nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo'lib boradi. Shuning uchun ta'lim jarayoning samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni o'quvchilar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta'minlanishi zarur.

Refleksivlik tamoyili subyektivning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqdagi fikrlari va ularni o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarini tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o'qituvchiga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to'ldirish imkoniyatlari, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayoning loyihasini ta'lim jarayoni ishtirokchisi – subyektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to'ldirib borishni talab etadi.

Ko'pomillik tamoyili. Har bir ta'lim jarayoni bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o'qituvchi va o'quvchilarning ijtimoiy – iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o'quv muassasasining o'quv – moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta'lim muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy – psixologik muhit, o'quvchilarning o'quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi ana shu omillarni hisobga olish zarur.

O'quvchi shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili va ta'lim jarayonida tabiiy rivojlantirish va ishlash tamoyillarida ham quyidagilarga to'xtalib o'tilgan.

Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Tamoyillarning mazmuni ta'limning ijtimoiylashtirish, o'quvchilar tomonidan ijtimoiy tajribaning individual qonunyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi. O'quvchi faoliyatini tashkil etishda e'tibor birinchi navbatda faoliyat usullari va jarayonlarning o'zaro muvofiq bo'lishiga qaratiladi. Bu holat meyoriy talab sifatida qabul qilinadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchiga o'quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati o'quvchini qaror qabul qilishi, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o'quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va ularni o'quvchiga taklif etish maqsadga muvofiq. O'qituvchining vazifalaridan biri o'quv maqsadiga muvofiq o'quvchining ichki intilishi, rag'bat (motivi)ni rivojlantirishdir. Loyihalashda o'quvchini o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z – o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur. Texnologik jarayonini boshqarishda o'qituvchining faoliyati texnologik operatsiyalar tarzida tashkil etiladi.

Texnologik operatsiya – o'quv faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchi faoliyati va o'quv materiali mazmunining o'zaro birligi sifatida o'quvchining ta'limning muayyan bosqichidan keyingi bosqich, yuqoriroq darajaga o'tishini ta'minlaydi.

V. Xulosa.

Mavzum bo'yicha men shu xulosaga keldimki, darsning loyihalash tartibi juda ko'p jarayonlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon pedtexnologiyasi talab etadigan metodik jarayonlar nemis tili fanini o'rgatishda eng muhim omillardan biridir. Men o'z diplom ishimni o'rganib chiqib, turlicha pedagogik, metodik talqinlarni va amaliyotda qo'llanib kelinayotgan ilmiy ishlar bilan tanishdim va shunday xulosaga keldim. Darsni loyihalashda asosan quyidagilarni har biri bo'lajak pedagog bilishi shart.

1. loyihaning mazmuni mohiyati.
2. loyihaning turlari.
3. loyiha bosqichlarini belgilay olish.
4. sinf yoki guruhlar uchun materiallar tayyorlash.
5. loyihaning kirish qismini belgilay olish
6. reja va tashkillashni aniqlay olish.
7. amaliyotda loyihani qo'llay bilish.
8. ilmiylikni amaliyotda qo'llay bilish
9. amaliy ishni taqdimotini bilish.
10. so'ggi jarayon va keyingisiga tayyorlanish.
11. guruh ishini xotima jarayonini yakunlay bilish.

Hozirgi kunlarda loyiha usulini darslarda qo'llanishini ahamiyati oshib bormoqda. Ayniqsa bu usul chet tillarini o'qitish va o'rganishda keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy chet tilini "loyiha" usuli asosida o'rganish yuqori baholanadi. Bu yerda "loyiha" so'zini munozara, kelishuvlarga yo'naltirilagan o'rgatish va o'rganishda dars markazida o'quvchi turgan shakli sifatida qabul qilinadi. Shu ma'noda ushbu tushuncha Yevropa davlatlarida o'tgan asrning oxirgi o'n yilliklaridan boshlab qo'llanila boshlagan bo'lsa, bizning mamlakatimizda esa ushbu ma'nodagi "loyiha" so'zi butunlay yangi ma'noda qo'llangan desak yanglishmaymiz.

“Loyiha” usuli darsning alohida shakli sifatida, o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan birgalikda rejalashtirilib, ma’lum bir maqsadga yo‘naltiriladi. Faqatgina nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham noan’anaviy darslardan farqlanadi. Loyiha darsi bu faol o‘rganish demakdir bu o‘quvchilarning o‘zlari bu jarayonda shaxsiy tajriba orttiradilar. O‘qituvchi esa bunda yordamchi, qo‘shimcha materiallar taklif qiluvchi va guruh ishlari jarayonini kuzatuvchi vazifasini o‘taydi. Loyiha darsning mazmuni guruhlar tomonidan erkin tanlanadi, uslubiy jihatdan amalga oshirilishi va materiallar tayyorlash bir – biriga muvofiqlashtiriladi va vaqtini belgilash erkin amalga oshiriladi. Loyiha darsni erkin o‘rganishning oliy shakli deb ham tushinish mumkun. Sinf yoki o‘quv binosini tark etish, ma’lum belgilangan joylarda amalga oshirilishi bu loyiha darsni o‘ziga hos bo‘lgan xususiyatlaridan biridir. Chunki o‘quvchilar ongli ravishda o‘zlarining shaxsiy o‘quv jarayonlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Loyihaga yo‘naltirilgan darslar Pestolotsiy tabiri bilan aytganda, “Bosh yurak va qo‘l bilan o‘rganishi” demakdir. Muvaffaqiyatli natijani kafolatlash uchun esa ma’lum bir metodlar, ya’ni ko‘nikmalar, malakalar va texnik ko‘rinishlari bilan birgalikda amalga oshirish talab etiladi.

Bugungi kunda yilda bir marta, ayniqsa, Yevropa davlatlarida loyiha kunlarini o‘tkazish odat tusini olgan.

O‘quvchilar uchun o‘qituvchi nazoratidan qisman holi bo‘lgan bu jarayonga loyiha prezentatsiyasini o‘tkazish uchun Dieter Paul quyidagilarni taklif qiladi.

- * hisobot shaklida berish.
- * devoriy gazeta tayyorlash.
- * plakatlarda taqdim qilish.
- * kollajlar tayyorlash.

- * hikoyalar tuzish.
- * reportajlar yozish.
- * lukentekst va bunga tegishli kontrol varaqlarini tuzish.
- * takrorlash va mustahkamlash uchun mashqlar o'ylab topish.
- * so'rovnoma (javoblari bilan) tayyorlash.
- * suratlar, rasmlar yoki video lavhalar tayyorlash.
- * rasmi hikoyalar tayyorlash.
- * yumorlar tuzish.
- * qo'shiqlar yoki she'rlar yozish.
- * bahsli munozara olib borish.
- * o'yinlar o'ylab topish.
- * topishmoqlar tuzish.
- * o'ylab top o'yinlarini o'tkazish.
- * ko'rgazma tayyorlash.
- * xat yozish.
- * maktab gazetasi uchun maqola yozish.

Albatta yuqorida aytib o'tilgan taqdimot shakllarini tugallangan shakl deb aytib ham bo'lmaydi. Loyiha ishlarini baholash va taqdimotini o'tkazish uchun alternativ usullar ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, intervyu olib borish, matbuot konfrensiyasini o'tkazish, yoki shaxsiy SD disklarni tayyorlash.

Shuni alohida aytib o'tish joizki, loyiha darslarini boshlang'ich sinflardayoq o'tkazish foydadan holi emas. Quyi sinflarda loyihaga yo'naltirilgan dars fundamentining bir qismi sifatida o'quvchilarga mustaqil matnlar tuzish va ma'lum bir mavzularga oid ma'lumotlar to'plash imkoniyatini beradi va o'rgatadi. Har bir boshlang'ich chet tili darsliklari bir xil mavzular bilan boshlanadi. Masalan, o'quvchilarning nomlari, o'zini va do'stlarini tanishtirish texnologiyalarini va so'ngra maktab, oila, do'stlar, uy hayvonlari va bo'sh vaqt mavzulari o'rin oladi.

Tabiiyki, bunday mavzular orqali o'quvchilar o'zlarining shaxsiy tajribalaridan foydalanadilar. Bunday mavzular bilan boyitilgan zamonaviy o'quv majmualari o'quvchilar shaxsini transfer usulida shakllantirishga yordam beradi, ya'ni o'quvchilar bunda o'zini, do'stlarini va oilasini tanishtirishi va shaxsiy hayot aspektlarini tasvirlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Loyihaga yo'naltirilgan darslarni tashkillash uchun shunday o'quv metodik qo'llanma "Mitmachbuch" (birga qilish kitobi) yaratildi. Bu publikatsiyadan "Bu menman", "Mening kiyimlarim", "Mening hobbilarim", "Mening oilam", "Mening maktabim", "Mening sinfim" va shu kabi juda ko'plab mavzular o'rin olgan. Ushbu usul orqali, ayniqsa, janubiy Amerikada va dunyoning juda ko'plab hududlarida muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu kitobga qo'shimcha sifatida nemis federal nashriyoti ham shu maqsadda qo'llaniladigan broshyura chop etdi. Lekin ushbu broshyuradan ilyustratsiyalar, kollajlar "Layout" jadvali o'rin olmagan. Bu esa doim o'qituvchi nazoratini talab etadi. Shu sababli ushbu broshyura tezda tanqidga uchradi. Bir necha yillardan so'ng "kim? qanday? nima?" kitobi yuqoridagi kamchiliklarni to'ldiradigan holda yaratilib, kirish so'zining o'zidayoq o'quvchilarga murojat qilinadi va o'quvchilarga kitob maqsadi, u bilan qanday ishlash lozimligi haqida ko'rsatma beriladi. Bu kitob seni qo'lingdan nimalar kelishini, chet tilini yanada yaxshiroq o'rganish uchun yana nimalar qilishing kerakligini ko'rsatadi. Senga ko'pgina yangi so'zlar va gaplar o'rgatadi degan g'oyani keltirish kerak. Bundan tashqari, kichik va katta loyihalarni yolg'iz yoki do'stlaring bilan qilishni o'rganasan. Kitob seniki, qayerdan boshlashni xohlaysan, o'sha yerdan o'rganishing mumkun. Sen xatolar qilishing ham mumkun. Agar xohlasang tuzgan matnlarni do'stinga ko'rsat. U sendan o'rganishi yoki senga yordam berishi mumkun. Bundan tashqari, o'qituvching ham senga yordam berishi va takliflar qilishi mumkun. Bu kitob chet tilini o'rganishning boshlang'ich etaplaridayoq,

tilni kreativ, avtonom va erkin loyiha usulida o'rganishni o'rgatadi. Quyidagi misollardan esa o'lkashunoslikga oid ma'lumotlarni faol va eng muhimi birgalikda interfaol usulda o'rganishni o'rgatadi. Gyote institutining "Inter Nations" nashriyoti tomonidan tayyorlangan "Germaniya Federativ Respublikasi – jonlik, hazil va ko'p qirralik" nomi ostidagi posterlari afsuski juda ko'p mamlakatlarning oliygohlarida, malaka oshirish institutlarida va maktablarda devor bezagi yoki dekoratsiya obyekti sifatida ishlatilmoqda. Bu poster bilan esa Rossiyada Dimitriy Milinskiy ulkan yutuqlarga erishdi. Ko'p o'tmay esa Vengriya va Irlandiyada ham shunday poster bilan intermadaniy holda yondashib, o'z mamlakatlari bilan qiyosiy holda tatbiq etilgan. Biz ham quyida poster ya'ni loyiha usulida ishlash uchun misollar keltiramiz.

1) bosqich.

So'z ustida ishlash bo'yicha o'quvchilarga posterdan umumiy ma'noni anglatgan so'zlarni beramizki, o'quvchilar shu tushunchaga mos so'zlarni posterdan ajratib olishlari lozim. Masalan, ertak figuralari, yeguliklar, hayvonlar, suvlar, ramzlar, bayramlar mashhur kishilar, yil fasllari va hokazolar.

2) bosqich.

"Men kimman" savoli orqali o'quvchi o'z o'ylagan biror mashhur kishi bo'yicha o'quvchilarning savollariga "ha" yoki "yo'q" deb javob berib turadi. Yoki buni aksincha ham olib borish mumkun. O'quvchining o'zi posterdagi o'sha shaxs sifatini boshqalar topgunicha hikoya qilaveradi.

3) bosqich.

"Men ko'rayotgan narsani ko'rmayapsan" o'yinida o'quvchi posterdan biron bir rasmni tanlaydi. Boshqa o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga "ha" yoki "yo'q" deb turadi. To'g'ri javob topulguncha o'yin davom etadi.

4) bosqich.

“Ikki shaxs o‘rtasidagi suhbat” usulida posterdan ikki shaxs tanlab olinadi va ular bir – birlari bilan suhbatlashishlari lozim bunda o‘quvchilar har ikki shaxsga xos bo‘lgan hayot yoki ijod yo‘llaridan imkon darajasida xabardor bo‘lishlari lozim. Masalan, Nena va Ludvig yoki boshqa juftlik Ido Lindenbergga va Angela Merkellarni o‘zaro suhbatlashtirishlari lozim va hokazo.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ushbu poster bilan turli xil interfaol usullarni amalga oshirish mumkun. Bu esa doimgidek o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. O'.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. "Fan" nashriyoti 2006 yil.
2. O'. Hoshimov, I. Yoqubov. Inglis tili o'qitish metodikasi. "Sharq" nashriyoti. Toshkent 2003 yil.
3. Rainer E. Wicke. Aktiv und Kreativ lernen. "Max Haeber" nashriyoti 2004 yil.
4. Johannes Bostain. Zur Theorie des Projektunterrichts. Hamburg. 1997 yil.
5. Karl Frey. Die Projektmethode. Weinheim. Basel Neuauflage. 2001 yil.
6. Dagmar Hansel. Projektunterricht. Ein praxisorientiertes Handbuch. Weinheim. Basel. 1999 yil.
7. Fremdsprache Deutsch. Themen heft Unterrichts projekte. 1991 yil Heft
8. Oksarov E. Kommunikative Akte und Textanalyse.
9. Krostelov B.C. og'zaki nutqni rivojlantirish omillari.
10. Devkin B.D. nemis tili darsida nutq shakllarini o'zaro bog'liqligi.
11. Maktablarda xorijiy tillarni o'rgatish jurnal " Herder Uni" 1985-1989 yillar.
12. Tatsachen uber Deutschland "Soietats"2010.
13. Aspekte Langenscheidt. "Sturtz" 2008.
14. Zeitschrift. Vitamin de.nv.38. Herbst
15. Metzsig, Werner, Martin Schuster. Lernen zu lernen. 1993.
16. Meyer, Hilbert. Unterrichtsmethoden. Frankfurt. 1994.
17. Mummert, Ingrid. Schreiben im Deutschunterricht. 1989.
18. <http://www.daf-portal.de>
19. <http://www.deutsch-als-fremdsprache.de>
20. <http://www.daf-netzwerk.org>
21. <http://www.gutenberg.spiegel.de>